


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Н.Х.Хакимов, А.А.Абдумаликов, Ё.З.Нуриддинов**

Объективные и субъективные факторы в возникновении первого периода восточного ренессанса (IX-XII вв.) ..... 5

**D.E.Normatova, S.N.Muxammadova**

Dialektikaning paydo bo'lishi va uning namoyandalari ..... 12

**N.M.Axmadiyev**

Milliy o'zlikni anglashda Vatanparvarlik tamoyilining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari ..... 15

**Д.А.Исаева**

Влияние медиа на развитие античной философской мысли ..... 18

**I.A.Asatulloev**

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida diniy mavjudlikni anglashning axloqiy ahamiyati ..... 22

**O.B.Shokirov**

Yangi O'zbekistonning ma'nnaviy yuksalish jarayonida san'at imkoniyatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili ..... 28

**R.B.Abduraxmonov**

Oilaviy zo'ravonlik tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari ..... 32

**X.J.Toshpo'latov**

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'nnaviy muhit barqarorligini ta'minlashda viktimologik profilaktika tizimini yuksaltirishning falsafiy masalalari ..... 36

**A.I.Abdullaxo'jaev**

Is'hoqxon ibrat va "Tabodili zamon": ijtimoiy-falsafiy tahlil ..... 39

**I.T.Yuldashev**

Jamiyat ma'nnaviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili ..... 43

**A.A.A'zamjonov**

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda amaliy san'atning badiiy-ijodiy imkoniyatlari ..... 47

**M.K.Soipova**

Fazl Ibn Ahmad ta'lilotida ontologik masalalarning qiyosiy tahlili ..... 51

**S.F.Abdusattarova**

Models of social processes: a philosophical perspective on the interaction between humans and society ..... 55

**S.R.Xoldarov**

Zamonaviy jamiyatda konfutsiychilikni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari ..... 60

**Sh.B.Samanova**

Atrof-muhit muvozanatida ekologik madaniyatning o'rni ..... 66

**R.Orziboyev**

G'oyaviy birdamlik tushunchasi va uning falsafiy tahlili ..... 70

## SIYOSAT

**Z.Sh.Turg'unboyev**

O'zbekiston va Afg'oniston savdo-iqtisodiy integratsiyasi ahamiyati: tahlil va kelajakdag'i imkoniyatlar ..... 74

**Ф.М.Бафоев**

Проблемы нелинейного воздействия и неравновесность в современной мировой политике ..... 80

**A.To'xtasinov**

Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari ..... 84

**U.U.Sattarov**

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha normativ-huquqiy asoslar ..... 88

**B.T.Shokirov**

Kiberxavfsizlikning davlat siyosat darajasiga ko'tarilishi: zamonaviy tahdidlar va strategiyalar ..... 94



УО'К: 101.1

**YANGI O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY YUKSALISH JARAYONIDA SAN'AT  
IMKONIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI**

**СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ИСКУССТВА В  
ПРОЦЕССЕ ДУХОВНОГО ОБНОВЛЕНИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

**SOCIAL-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE POSSIBILITIES OF ART IN THE  
PROCESS OF SPIRITUAL UPGRADE OF NEW UZBEKISTAN**

Shokirov Otobek Bahodirovich   
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

*Maqolada ma'naviy yuksalish jarayonida san'at omilini ijtimoiy-falsafiy tahlil etishning nazariy asoslari, ma'naviy yuksalish jarayonida san'at imkoniyatlarining ijtimoiy-falsafiy jihatlari, ma'naviy yuksalish jarayonida san'atni rivojlantirishning istiqboldagi vazifalari o'rganilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida san'at imkoniyatlari ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan.*

**Аннотация**

*В статье рассматриваются теоретические основы социально-философского анализа фактора искусства в процессе духовного возвышения, социально-философские аспекты возможностей искусства в процессе духовного возвышения, а также перспективные задачи развития искусства в процессе духовного возвышения. Также был проведен социально-философский анализ возможностей искусства в процессе духовного возвышения Нового Узбекистана.*

**Abstract**

*The article studies the theoretical foundations of the socio-philosophical analysis of the factor of art in the process of spiritual upliftment, the socio-philosophical aspects of the possibilities of art in the process of spiritual upliftment, the future tasks of the development of art in the process of spiritual upliftment. Also, the socio-philosophical analysis of the possibilities of art in the process of spiritual upliftment of New Uzbekistan is carried out.*

**Kalit so'zlar:** ma'naviy yuksalish, ijtimoiy qonuniyatlar, san'at omili, an'anaviylik va zamonaviylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tizimli va funksional, ijtimoiy-falsafiy tahlil, liberalallashtirish, dialektik, ijtimoiy tarbiyalash funksiyasi, modernizatsiyalash.

**Ключевые слова:** духовный рост, социальные законы, фактор искусства, традиция и современность, сравнительный анализ, анализ и синтез, системный и функциональный, социально-философский анализ, либерализация, диалектика, функция социального воспитания, модернизация.

**Key words:** spiritual growth, social laws, the factor of art, tradition and modernity, comparative analysis, analysis and synthesis, systematic and functional, socio-philosophical analysis, liberalization, dialectic, social education function, modernization.

**KIRISH**

San'at keng ma'noli tushunchadir. Masalan, qadimgi yunonlar musiqa, raqs, nazmni san'at deb bilishgan. O'rta asrlarga kelib esa uning tarkibiga tasviriy san'at, kasallarni davolash va dorixona ishlari ham kiritilgan. Bugungi kunda «san'at» so'zi voqelikni badiiy timsollar vositasida ijodiy aks ettirish, «ishning ko'zini bilish» va «mahorat ko'rsatish jarayoni», «har qanday ishning o'zi va u talab qiladigan mahorat darajasi» ma'nolarida qo'llaniladi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da san'atning asosan ish, mehnat, mahorat, kasb-hunar kabi ma'nolarni aks ettirishi ta'kidlanadi. Shunga ko'ra, san'at, ijtimoiy madaniyatning estetik zavq beruvchi,musiqa, musavvirlilik, haykaltaroshlik kabi voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi har bir ayrim sohasi; turli amaliy-tadbiqiy sohalarning o'ziga xos ish uslubi, sistemasi; muayyan faoliyat sohasidagi yuksak mahorat, ustalik, iste'dod; adabiyotshunoslikda: badiiy asar poetikasini ta'minlovchi vosita kabi mazmunlarga egadir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

San'atning ma'naviy asoslari va ijtimoiy funksiyalari bilan Xauve, Dj.Kerven, YE.Jak-Dalkroz, L.Daniyel va F.Lissek, R.Myunnix, D.Karomatli, T.Levin, E.B.Abdullin, B.M.Teplov,

## FALSAFA

A.N.Soxor, V.G.Mozgot, V.I.Petrushin, B.V.Asafyev, V.Beloborodova, T.V.Cherednichenko, S.F.Gurbanaliyeva, E.Abdulin, YE.Bodina, N.Ivanov, A.Nizamov, V.Rajnikov, F.Xalilov, D.Soipova, O.A.Ibrohimov, D.Karimova, R.Xonazarova, S.Maxmudova, M.S.Muxitdinova, Z.Oripov, Sh.Omanqulova, Q.Panjiyev, R.Azizov, X.A.To'raqulov, M.Xojdayeva, G.Sharipova, U.Y.Yuldashev kabi olimlar shug'ullangan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

San'at tushunchasining bunday keng ma'noda talqin etilishi bejiz emas, zero, san'at insonning ijodiy mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan, vujudga kelgan, ijod qilingan narsalar majmuidir. San'at inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib, har bir san'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. San'at, albatta, insonning mahorati bilan chambarchas bog'liqidir.

San'at keng ma'noda san'at asarlari (badiiy qadriyatlar), shuningdek, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini ham qamrab oladi. San'at ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Qadimiy Markaziy Osiyo hududida, Ispaniya, Sahroi Kabir va boshqa bir qator o'lkalarda uchraydigan qoyalarga o'yib tushirilgan hayvonlar tasvirlari hozirgi davr nuqtai nazaridan ham estetik qiymatga egadir. Ularda har bir narsa turining mezoniga mos ijod qilish, ya'ni ijod qonunlariga rioya qilish, mutanosiblik, ularni yaratish jarayonida olinadigan quvonch kabi estetik faoliyatning muhim belgilari ifodalangan.

Badiiy faoliyat kurtaklari estetik ehtiyoj tufayli paydo bo'lgan. U sekin-asta badiiy ehtiyojlarni qondirish tarzida alohida namoyon bo'lib borgan. Shu asosda aqliy va jismoniy mehnat uyg'unlashib, san'at sohasida ham o'ziga xos shaklda rivojlangan. Aql-idrok va qo'l faoliyati mutano-sibligi ajoyib, hayrotomuz san'at mo'jizalarini yaratishga olib kelgan.

Kishilarning birgalashib faoliyat ko'rsatishga bo'lgan ehtiyoji o'zaro axborot ayriboshlash zaruriyatini keltirib chiqqargan. Bu esa o'z navbatida, inson his-tuyg'ularining hamohang, mutanosiblikda doimiy tarzda rivojlanib, takomillashib borishiga olib kelgan. Masalan, burgutning ko'zi uzoq-uzoqlarni ko'ra oladi. Lekin inson burgutga nisbatan narsalarning ko'proq tomonlarini ko'rish, anglash, sezish, his qilish qobiliyatiga egadir. Quloq musiqa ohanglarini ilg'ash, ko'z narsalarning shaklini ajratish uchun xizmat qilganidek, insonning voqeiy hayotdan lazzatlanish qobiliyatini ro'yobga chiqaradigan boshqa his-tuyg'u a'zolari ham hayvonlarnikidan keskin farq qiladi.

Inson badiiy g'oyalarning moddiy ifoda topishi uchun zarur bo'lgan qurol va vositalar yaratib, o'z kundalik hayoti mazmunini boyitishga intiladi. Kishilar uzoq o'tmishda tosh qurollar yordamida ilk naqshlarni chizishgan, qoyalarga turli tasvirlar tushirishgan. Demak, san'at mehnat bilan uyg'un tarzda rivojlanib borgan. Shu bois badiiy faoliyat shakllari inson mehnati zaminida vujudga kelib, bevosita mehnat jarayonlari bilan uzviy bog'lanib ketgan.

Badiiy faoliyatning eng qadimgi shakllari bir-biridan ajralmagan holda yaxlit tarzda ibtidoiy jamoa madaniyatini namoyon etgan. Afsonaviy tafakkur bir vaqtning o'zida ham sog'lom, ham zaif xayolparastlikni o'zida birlashtiradi. Asotirda insonning zaifligi, ojizligi aks etib, ilm-fan, estetik tasavvurlar kurtaklari, axloqiy qadriyatlarning eng sodda qoidalari va shu bilan birga, turli yanglishishlar, «ma'n qilish»lar namoyon bo'ladi.

Asotirda diniy mazmun keng o'rın olgan. Misr afsonalari asosan diniy ibodat mazmuniga ega edi. Yunon afsonalaridagi diniy mazmun yunon san'ati asosini tashkil etgan.

Badiiy faoliyatda diniy ibodat bilan bog'liq jihatlar asosiy bo'lib, foydali – amaliy tomonlar bilan qo'shilib ketgan. Masalan, qadimgi odamlar yovvoyi hayvonlarni kamon o'qi bilan sanchib tasvirlash orqali o'zlarining bo'lajak ovda muvaffaqiyatga erishishlari muqarrarligini namoyish etmoqchi bo'lganlar. Shu tariqa estetik faoliyat voqelikni bilishga asoslangan va qadimgi odam ongida bilish bilan afsona chirmashib, yaxlit bir shakl kashf etgan.

Qadimgi estetik madaniyat yodgorliklarining mavzu yo'nalishi ham diqqatga sazovordir. Asosiy tasvir (qoya suratlari) va taqlid (raqslar) uchun ovchilik bilan bog'liq hayvonlar obyekt qilib olingan. Qadimgi ajdodlarimiz buqa, fil, kiyik tasvirlarini yaratish bilan ular haqidagi tasavvurlarini gavdalantirishgan va chuqurlashtirgan.

Insoniyat tarixidagi dastlabki san'at asarlari murabbiylit-tarbiyachilik vazifasini ham bajargan. Tasvirlar, naqshlar, raqlar, ertak-afsonalarda avloddan avlodga o'tib turgan amaliy, axloqiy, estetik tajriba mujassamlashgan edi. Badiiy faoliyatning ilk shakllari uyuştiruvchilik, birlashtiruvchilik vazifalarini ham bajargan. Yashash uchun kurash maqsadida jipslashgan,

birlashgan butun jamoa xatti-harakatlari, urinishlari vositasida qo'lga kiritilishi mumkin bo'lgan g'alaba-ovda hayvon ustidan g'olib bo'lish manzarasi aks ettirilgan. Bu tasvirlar ham qadimgi odamlarning jamoa bo'lib birlashishida eng muhim omillardan biri bo'lgan.

Inson badiiy faoliyatining ilk namunalari bo'lgan suratlarda san'atning juda ko'p belgi va xususiyatlari ko'rinish turadi. Lekin ularda yakka shaxs omili yetishmaydi. Qadimgi odamlar faqat urug' va qabila uchun umumiy bo'lgan his-tuyg'u hamda tasavvurlar bilan yashagan, o'zini voqelikdan ajratolmagan. San'at esa boshidan oxirigacha shaxsdan boshlanadi, shaxs bilan shakllanadi, shaxs bilan qard topadi. Shaxs san'at ijodkori, badiiy qadriyatlar yaratuvchisi bo'lishi bilan birga, u san'atning asosiy obyekti va mavzusidir.

Ibtidoiy odamlar badiiy faoliyati jarayonida tabiatni ramziy-timsoliy aks ettirish kurtaklari shakllangan. Mana shu ilk ramziy-timsoliy akslarda insonning mualliflik «qo'li»-uslubi paydo bo'lgan. Shu tariqa badiiy ramz-timsol muallif-ijodkorning betakror iste'dodini namoyon qilgan.

San'at tarixiy taraqqiyot jarayonida hamisha ijtimoiy ehtiyojlarni qondirib kelgan. San'at ijtimoiy hayotning murakkab munosabatlari bilan aloqador bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham mehnatning alohida turi, ham ijtimoiy ishlab chiqarishning maxsus sohasi, ham ijtimoiy ongning bir shakli, ham o'ziga xos bilim sohasi, ham ijodiy faoliyatning bir ko'rinishi sanaladi.

San'at avvalo ijtimoiy ong shaklidir. Uning boshqa barcha tavsiflari ana shu sifatdan kelib chiqadi va shu tahvilga asoslanadi. San'at ijtimoiy turmush jarayonlari bilan bog'liq. Bu qadimgi odamlarning moddiy va ma'nnaviy boyliklar yaratishda, ya'ni o'zlariga ma'qul, ko'ngillariga xush keladigan narsalar yaratishga bo'lgan ishtyoqlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy turmush san'atning rivojlanishiga bevosita ta'sir o'tkaza borgan. Keyinchalik esa ijtimoiy tuzilmalar, falsafiy-diniy, siyosiy qarashlar, axloqiy qoidalar, ma'nnaviy qadriyatlar orqali ham ta'sir o'tkazgan.

San'atning jamiyat hayotida nisbiy mustaqil tarzda amal qilishi vorisiylik qonuniyatining namoyon bo'lishi bilan ham bog'liq. Ijtimoiy ongning barcha shakllariga taalluqli bo'lgan vorisiylik san'atga ham xosdir. Vorisiylik jamiyat moddiy asosi bilan bog'liq bo'lgan siyosiy va huquqiy ong sohalarida ko'proq namoyon bo'ladi.

Vorisiylik ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida mavjud. Ammo hayotning barcha tomonlarini qamrab oluvchi, iqtisodiy zamindan ancha yiroq bo'lgan san'atda vorisiylik yorqin va keng namoyon bo'ladi. San'atning hamma qirralari, mavzu yo'nalishi, g'oyaviy-ruhiy qoida va ohanglari, ijodiy aqidalari, uslubi tur va shakllari, ifoda vositalarida vorisiylik, ayniqsa, bo'rtib ko'rindi.

Vorisiylik hech mahal ijodkorning shaxsiy «injigqliklari»ga bo'yusunmaydi. Har bir ijodkor san'atda biror-bir yangi narsa yaratar ekan, u o'zidan avvalgi badiiy, g'oyaviy-ruhiy, uslubiy ifoda vositalariga tayanib, ijod qiladi. Hatto, san'atda batamom yangi yo'nalish ochayotgan daho ham hamma vaqt o'zining o'tmishtoshlari «yelkasida turib qaddini rostlab oladi».

Avvalgi badiiy merosdan qay darajada foydalanish mumkin, qaysi qismini rad etish kerak, degan savolga javob berishda ham vorisiylik qonuniyatlaridan kelib chiqiladi.

Ijtimoiy ongning boshqa shakllarida bo'lganidek, san'atda ham bilish va mafkura bir-biri bilan chirmashib, o'zaro bog'lanib ketgan. Turli tarixiy bosqichlarda va san'atning turli ko'rinishlarida bilish va mafkura o'zaro mutanosiblikda amal qiladi.

### XULOSA

San'at xuddi fan singari o'z mavzu doirasida begiyos bilish-anglash imkoniyatlariga ega. Lekin san'atning badiiy bilish-anglash jarayoni o'ziga xos xususiyatlar doirasida sodir bo'ladi. San'at voqelikni badiiy vositalar orqali yanada to'laqonli, jozibali anglashga yordam beradi.

Ma'lumki, ijtimoiy ongning har bir shakli voqelikning muayyan biror bir tomonini aks ettiradi. San'at ijtimoiy ong shakli sifatida voqelikni badiiy-tasviri shaklda anglash imkonini beradi. Insonning bilish-anglash faoliyati masalalari bilan fanning juda ko'p sohalari shug'ullanadi. Masalan, tabiiy fanlar insonni biologik mavjudot sifatida o'rgansa, ijtimoiy fanlar uni shaxs sifatida tahlil qiladi, inson shaxsiga o'z vazifalari nuqtai nazaridan yondashadi: ruhshunoslik insonning ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini o'rganadi; iqtisod nazariyasi insonga muhim ishlab chiqaruvchi kuch sifatida qaraydi; siyosatshunoslik insonning siyosiy munosabatlar jarayonidagi o'rni masalasi bilan shug'ullanadi; axloqshunoslik insonni xulq-atvor qoidalari bilan bog'liq holda tadqiq etadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Belov G. Istorija filosofija nauki. –Moskva: Izdatelskiy dom MGU, 2012.
2. Veber M. Nauka kak prizvaniye i professiya // M. Veber. Izbrannije proizvedeniya. - M.: Progress, 1990.
3. Jabborov I. Yuksak madaniyat va noyob ma'nnaviyat maskani. –Toshkent: O'zbekiston, 2012. Otamuratov S. Globallahuv va millat. -Toshkent: Yangi asr avlod, 2008.

**FALSAFA**

- 
4. Umarov E., Abdullayev M., Xakimov E. Estetika. -T.: Uzinkomsentr, 2003
  5. Shestakov V.P. Ocherki istori estetiki. (Ot Sokrata do Gegelya). -M.: Mo'sl, 1978
  6. O'zbek tilining izohli lug'ati.Uchinchi jildi.-T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.